



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAMANGAN VILOYATI XALQ
TA'LIMI BOSHQARMASI
KOSONSOY TUMAN XALQ TA'LIMI
MUASSASALARI FAOLIYATINIMETODIK
TA'MINLASH VA TASHKIL ETISH BO'LIMIGA
QARASHLI 32-UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABINING BOSHLANG'ICH
SINF O'QITUVCHISI
OTAXONOVA MUHABBATNING
BIR SOATLIK

DARS ISHLANMASI



Kosonsoy shahri

Dars ishlanma Namangan viloyati Kosonsoy tumani
XTMFMTTEB ga qarashli 32- umumiy o'rta ta'lim
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonidan
davlat talablari asosida tayyorlangan bo'lib , bundan
umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf
o'qituvchilari ish faoliyati davomida foydalanishi mumkin.

Muallif: M.Otaxonova 32- maktabning
2-toifali boshlang'ich sinf
o'qituvchisi.

Muhariri: Q.Mamatvaliyev Namangan viloyat
xalq ta'limi boshqarmasi metodika
markazi direktori

Taqrizchilar: M.Payzibayeva NVXTB
boshlang'ich ta'lim metodisti

H.Matkarimova KTXTMFMTTEB
boshlang'ich ta'lim metodisti

Ushbu dars ishlanma NXXTB metodika kengashining "____"
yil "_____" kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida "____" - sonli
qarori bilan tasdiqlanib foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Mavzu: Iqror bo'ldi.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: To'g'ri, ravon va ifodali o'qish malakasini takomillashtirish, kasb-hunar o'rganishning inson hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni kasb-hunar o'rganishga mehr-muhabbat uyg'otish, yolg'onchilik, dangasalik kabi yomon illatlar haqida tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi: Bolalarni aqliy va mustaqil fikrlay olish, ravon, ongli, ifodali o'qish faoliyatini oshirish, erkin fikrlash jarayonini rivojlantirish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi.

Darsning jihozi: Kasb-hunarga oid bukletlar, tarqatma didaktik materiallar, mavzuga oid rasmlar, DVD.

Darsning metodi: Interfaol.

Darsning borishi:

I. TASHKILIY QISM

Bir so'z bor, u ilk kalomdan boshlanar
Odobning boshi ham undan boshlanar
Unga odat qilgan yetar murodga
Odat qilmaganchi qolar uyatga
Jumboqning ma'nosin yeching farzandim
So'ngra uni kanda qilmang dilbandim

O'quvchilar bilan salomlashiladi.

Navbatchi axboroti. Qisqa savol-javob.

Hozirgi sabog'imizning nomi:

O'qish bu odob ilmi,
Berar bizga hayotdan saboq.
U bordurki, hayot suruli,
U bordurki, kelajak porloq.

Aziz bolajonlar! Bugungi sabog'imizda sizlar bilan "Otalar so'zi – aqlning ko'zi" shaharchasida sayohat qilamiz. Sayohat davomida zerikib qolmasligingiz uchun guruhlariga bo'linib, musobaqa olib boramiz. Endi guruhlariga bo'linib olsak.

I guruh Otalar: Otalar oila boshlig'I, ularning vazifasi farzandiga munosib ism qo'yish va to'g'ri tarbiya berishdir.

II guruh Onalar: Onalar farzandni dunyoga keltiradi. Oq yuvib, oq tarab kamolga yetkazadi.

III guruh Bolalar: Kelajakda yaxshi o'qib, bilim olib otalariga, yurtiga xizmat qiladigan sodiq farzandlar bo'lishdir.

Bolajonlar biz sizlar bilan sayohatga mana bu avtobusda chiqamiz. Avtobusga chiqish uchun chipta olishimiz kerak. Biz chiptani o'z bilimlarimiz evaziga qo'lga kiritamiz. Qani tayyormisiz!

Savol: Vatan deganda nimani tushunasiz?

Javob: Vatan haqida she'r.

Vatan bu kindik qonimiz to'kilgan tuproq.

Vatan bu beshikdir.

Vatan bu onamiz aytgan alladan boshlanadi.

Vatan bu qiziq o'yinlar o'ynaydigan ko'chamizdir.

Vatan bu maktabimizdir.

Vatan bu uyimizdan, o'tirgan partamizdan boshlanadi.

Savol: Vataningiz nomi nima?

Vataningiz haqida gapirib bering?

Javob: O'zbekiston haqida she'r.

go'zal Biz O'zbekiston nomi bilan dunyoga mashhur bo'lgan
vatanda yashaymiz.

O'zbekiston mustaqil, huquqiy demokratik davlatdir.

Vatanimiz o'zining yurtboshiga, davlat ramzlariga va
konstitutsiyasiga ega.

Davlat ramzlari haqida she'r.

Bizning vatanimiz A. Navoiy, Z. M. Bobur, Ibn Sino
kabi buyuk allomalar yurtidir.

Savol: Maktabingiz haqida nimalarni bilasiz?

Javob: Maktab haqida she'r.

Chortoq tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini
metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli
11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi bo'lib, go'zal
Gulshan vohasida joylashgan.

O'quv dargohimizda ta'lim olish uchun barcha sharoitlar
yetarli. Xonalari keng va yorug'.

Maktabimizda turli fan va spor to'garaklari tashkil
etilgan.

Biz shu dargohda o'qib, bilim olib mustaqil yurtning
sodiq farzand bo'lamiz.

Balli bolajonlar! O'z bilimingiz evaziga chiptalarni qo'lga kiritdingiz. Yo'lga chiqishdan oldin ob-havo bilan tanishib olsak. Ob-havo haqida axborot.

Mana endi yo'lga chiqsak ham bo'ladi. Bolajonlar qarang, "Kim epchil-u kim chaqqon" cho'qqisiga yetib kelibmiz. Keling endi bu cho'qqini zabt etib, qo'ziqorin sohibi bo'lamiz.

II. O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH.

Savol:

1. Mustaqillik bayramini qachon nishonlaymiz?
2. Ha bilan Xo'p she'rining muallifi kim?
3. Amur Temur kim bo'gan?
4. O'qish kitoboning muallifi?
5. Sudrasang yuradi, sudramasang turadi?

Savol:

1. 1991-yil 18-noyabr qanday kun?
2. Salom she'ridan aytib bering?
3. Vatn she'rining muallifi kim?
4. 9-fevral qanday kun?
5. Javdar non hikoyasining qahramoni kim?

Savol:

1. O'zbekiston mard o'g'lonlari
Bahodirlar pahlavonlari

Ushbu misra qaysi she'rdan olingan?

2. O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi qachon qabul qilingan?
3. 2-sinfda o'qish tezligi nechta so'zdan iborat?
4. Ibn Sino kim bo'lgan?
5. Dangasa o'g'il qaysi xalq ertagi?

Mana “Kim epchil-u kim chaqqon” cho’qqisini ham zabt etdik. Yo’lda davom etamiz. Qarang bu yerda teatr bor ekan! Teatr tomosha qilib, dam olishni istaysizmi? Qani marhamat!

O’tilgan mavzu “Dangasa o’g’il” ertagi asosida sahna ko’rinishi.

Bolajonlar teatr sizga yoqdimi? Qaysi ertak asosida ekan? Dangasalik qanday odat ekan? Qissadan qissa nima? O’quvchilar savollarga javob beradilar.

III. YANGI MAVZU BAYONI

O’quvchilar mana bu rasmni ko’rib, qaysi multfilmni eslayapsiz?

O’quvchilar: Iqrar bo’ldi multfilmi.

Biz sizlar bilan mana bu gullar orqali gullar kompozitsiyasini tuzamiz. Kichik ramashkalar orqali Iqrar bo’ldi so’zini yozamiz. Buning uchun maqollarni yaxshi bilishimiz kerak.

I – ilm olsang dunyoda, aqling bo’lar ziyoda.

Q – qars ikki qo’ldan chiqadi.

R – rejasiz ish, qilipsiz g’isht.

O – ochko’zlik yomon odat , keltirar u falokat.

R – rost so’zlasang yetarsan murodga, yolg’on so’zlasang qolarsan uyatga.

B – birni kessang, o’nni ek.

O’ – o’ynab gapirsang ham o’ylab gapir.

L – layoqatsiz kishining unumi yo’q ishinig.

D – do’stsiz boshim, tussiz oshim.

I – inson odobi bilan go’zal.



“Iqror bo’ldi, xatosini tan oldi” degan ma’noni bildiradi.


Endi rivoyat bilan tanishib chiqsak. Ifodali qilib o'qib beraman. Bolalar zanjir shaklida o'qishadi. Mavzu yuzasidan savol-javob. O'quvchilar qayta hikoya qilishadi. Qani endi kosib otani so'zlarini eshitsak. (DVD orqali)

“Salom bolajonlarim! Jajji o’g’il qizlarim! Mana shunday qilib mening farzandim o’z xatosini tushunib yetdi. Hozirda ota kasbini egallaldi. O’zingiz bir hisoblab ko’ringchi, men bir kunda 23 tanga, o’g’lim 13 tanga ortiq ishlaydi. Bir kunda oilamiz byudjetiga birgalikda qancha daromad keltiramiz”.

Hunar haqida ma'lumot beraman.

IV. YANGI MAVZU MUSTAHKAMLASH.

Guruh sardorlari bellashuvi. Kosibchilik, ustachilik hunarga oid so'zlar asosida gullar yasashadi.



Yo'limizda davom etamiz. So'nggi bekatimiz olmazor. Olmalarni terish uchun olmalar orqasida yashiringan test savollariga javob berishimiz kerak.

1. Kosib ota o'g'liga nima dedi?

- A) men qarib qoldim, ishlab pul top
- B) yaxshi o'qi
- D) onangga yordam ber

2. Onasi qanday yo'l tutdi?

- A) ishlab kel o'g'lim dedi.
- B) hali yoshsan deb ozroq pul berdi

D) nasihat qildi

3. Kosib ota nima uchun pulni olovga tashladi?

A) mehnat qilib topganin bilish uchun

B) pul ozligi uchun

D) onasidan olgannligi uchun

Lug'at ishi.

Iqror bo'ldi – xatosini tushundi, tan oldi.

Imorat – bino

Mana sayohatimiz ham yakuniga yetdi.

Faol qatnashgan o'quvchilarni va g'olib guruhni aniqlayman
va rag'batlantiraman.

V. Uyga vazifa:

O'qib kelish, Men sevgan kasb mavzusida hikoya tuzib kelish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 3- SINF O'QISH DARSLIGI

2. "BOSHLANG'ICH TA'LIM" JURNALI

3.O'Z TAJRIBALARIMDAN

